

# "O'zkiyosanoat" AJ homiyligida Farg'ona viloyati Qo'qon shahrida joylashgan 19-maktabni to'liq ta'mirlash va jihozlash ishlari amalga oshirildi

// 09 September 2024 yil

<https://pda.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiyosanoat-aj-homiyligida-farg-ona-viloyati-qo-qon-shahr>



Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "O'zkiyosanoat" AJ homiyligida Farg'ona viloyati Qo'qon shahrida joylashgan 19-maktabni to'liq ta'mirlash va jihozlash ishlari amalga oshirildi. Respublikamizdagi barcha umumta'lim muassasalari kabi ushbu maktabda ham kuni kecha 2024-2025 o'quv yili mashg'ulotlari boshlandi. Yangi o'quv yiliga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali marosimda Jamiyat boshqaruvi raisi o'rinbosari Akobir To'xtayev ishtirok etdi va o'quvchilarni tabriklab muvaffaqiyatlar tiladi.

"O'zkiyosanoat" AJ tomonidan ta'lim muassasalarini ta'mirlash, laboratoriya xonalarini jihozlash va o'quvchilar uchun zarur-shart-sharoitlarni yaratish kabi xayrli tashabbuslar doimiy amalga oshirilib kelmoqda.







**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**